



SQB
2024 – 2026
RIVOJLANISH
STRATEGIYASI



Aktivlar bo'yicha 2-o'rin

2024-yil 1-yanvar holatiga bank aktivlari – 74,6 trln so'm, bozordagi ulush - 11,4%.



O'zbekistonning eng yaxshi ESG-banki

Markaziy Osiyodagi eng yaxshi yashil bank: 2020-yilda Asiamoney moliyaviy jurnalining "Best Bank Awards 2022" mukofoti.
ETTBning "Green Trade" mukofoti.



Avtomatlashtirilgan byudjetlashtirish tizimi

SAP Quality Awards-2021.



O'zbekiston banklari orasida "Mijoz tajribasi indeksi" bo'yicha 1-raqamli bank

Markaziy Osiyoda 3-o'rin, Senteo Inc. kompaniyasi tomonidan o'tkazilgan "Mijoz tajribasi indeksi" reytingi.



"Korporativ biznesni rivojlantirishda yetakchi bank"

UZCARD FORUM 2023.

SQB eng boy tarixga ega bank bo'lib, bozorda brendning taniqliligi, keng turdagi mahsulotlar, mijozlarga individual yondashuv va yuqori sifatli xizmat ko'rsatish bilan ajralib turadi

Yuridik mijozlar



70 000
dan ortiq

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan barcha yirik va kichik biznes korxonalarining 12,1% ulushiga teng

Tarmoqlar

~90 ta

Chakana mijozlar



1,5 mln

Chakana mijozlar bazasi 50 foizi 25-44 yosh oralig'ida.

Bozor ulushi



15,3%

Yuridik shaxslar kreditlari portfeli

5,7%
depozit bazasi

5,4%

Jismoniy shaxslar kreditlari portfeli

8,8%
ipoteka kreditlari portfeli

Xodimlar

4 000
dan ortiq

Xalqaro reyting

BB-

Fitch Ratings Inc.
S&P Global Ratings


uzA+

Ahbor-Reyting


BIR ASRLIK TAJRIBA

2021-2023-yillarda bank faoliyatining moliyaviy natijalari


AKTIVLAR, trln so'm




KAPITAL, trln so'm




KREDITLAR, trln so'm




DEPOZITLAR, trln so'm



DAROMAD, trln so'm



MUAMMOLI KREDITLAR ULUSHI (NPL), %



Transformatsiya natijasida SQB biznes jarayonlari takomillashtirildi va bank faoliyati mijozlarga yo'naltirildi, uning moliya bozoridagi mavqei yanada mustahkamlandi.

SQBda raqamli transformatsiya

- Qarzdorlikni monitoring qilish va undirish jarayoni **FIS Collection** moduli orqali raqamlashtirildi
- KPMG tashkiloti bilan hamkorlikda 2023-2027 yillarga mo'ljallangan **IT-strategiya** ishlab chiqildi
- SAP platformasida "Byudjetlashtirish" moliyaviy menejment tizimi joriy qilindi
- Mijozlarni masofadan identifikatsiya qilish uchun JOYDA mobil ilovasida **MyID** tizimi ishga tushirildi
- Xodimlarni **onlayn o'qitish ISPIRING** platformasi joriy qilindi
- Masofaviy xizmatlarni kengaytirish uchun "**Raqamli banking**" bo'linmasi tashkil qilindi

SQB transformatsiyasi doirasida amalga oshirilgan o'zgarishlar

- XMK va ETTBning 20 dan ortiq mutaxassislari 18 ta yo'nalishni transformatsiya qilish uchun jalb qilindi
- korporativ boshqaruv tizimi takomillashtirildi, Bank kengashi tarkibiga xorijlik 5 nafar mustaqil a'zo kiritildi
- bank kengashi qoshida 5 ta qo'mita tashkil etildi
- tashkiliy tuzilma xalqaro standartlarga moslashtirildi
- mijozlar 3 ta segment (korporativ biznes, kichik va o'rta biznes, chakana biznes)ga ajratildi va ular bilan ishlash uchun tarkibiy bo'linmalar tashkil qilindi
- mijozlarga individual xizmat ko'rsatish maqsadida RM menejerlari joriy etildi
- kredit xatarlarini samarali boshqarish uchun andarrayting tizimi joriy qilindi
- "Green Banking" tarkibiy bo'linmasi tashkil qilindi va "yashil" mahsulotlar ishlab chiqildi
- barcha tarmoqlarda yangi xizmat ko'rsatish modeli joriy qilindi, filiallar faoliyati sotuvga yo'naltirildi
- xodimlarning rag'batlantirishning KPI tizimi joriy qilindi
- yangi zamonaviy IT markazi ishga tushirildi
- ISO 37001:2016 xalqaro korruptsiyaga qarshi kurashish standarti joriy qilindi
- barcha filiallar YAGONA MFO tizimiga o'tkazildi
- jismoniy shaxslar uchun "YAGONA OYNA" tamoyili asosida CRM-tizimi ishga tushirildi
- Skolkovo Moskva menejment maktabida 55 nafar top-menejerlar o'qitildi
- ahborotlar va kiberxavfsizlik tizimi takomillashtirildi
- Aloqa markazi sotuv kanaliga aylantirildi
- mijozlarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar ulushi 59%ga yetdi
- Biznes jarayonlarni boshqarish ofisi tashkil qilindi

2019 - 2020


2021 - 2022

2023


SQB bank faoliyatining asosiy ko'rsatkichlari bo'yicha moliya bozorida yetakchi o'rinlarda

2024-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bankning sohadagi ko'rsatkichlari va raqobatchi banklar orasidagi mavqei:


Aktivlar, trln so'm




Kreditlar, trln so'm





Depozitlar, trln so'm



Kapital, trln so'm



Sof foyda, trln so'm



SQB o'zining missiyasini, kelajak istiqbollarini va istiqboldagi madsadlarini belgilab oldi



MISSIYAMIZ



Sizning muvaffaqiyatingiz - bizning asosiy vazifamizdir. Bizga sodiqligingiz esa, birgalikdagi rivojimizni kafolatlaydi.

Bankimiz missiyasi mijozlarga ishonchli hamkor bo'lish, ularni qo'llab-quvvatlash, shuningdek mamlakatimiz iqtisodiy taraqqiyoti va farovonligiga hissa qo'shishdan iboratdir.

KELAJAK ISTIQBOLLARI



Biz xalqaro darajadagi Bankni bunyod qilamiz.

Buning uchun faoliyatimizda mijozlarga yo'naltirilgan tamoyillarga amal qilish, innovatsiyalar borasida yetakchi bo'lish, xavfsizlikni ta'minlab, barqaror rivojlanishni davom ettirish, shuningdek jamoa xodimlari va yurtdoshlarimiz rivojiga munosib hissa qo'shish sa'y-harakatidamiz.

ISTIQBOLDAGI MAQSADIMIZ




Muvaffaqiyat sari qadamingiz: yetakchini tanlang – bizni tanlang!

Biz moliyaviy muvaffaqiyatga intilayotgan va moliyaviy hayotining boshlang'ich nuqtasida bo'lgan har bir inson uchun ishonchli hamkor bo'lishga intilamiz.


Bankimiz – barcha uchun eng mukammal tanlovdir.

Mijoz bizni tanlab, o'z moliyaviy maqsad va ambitsiyalari yo'lida chinakam ko'maklashuvchi moliya yetakchisini tanlagan bo'ladi.

SQB qadriyatlari



SQB strategiyasi jadal rivojlanish yo'nalishlariga va bankning ustuvor xususiyatlariga asoslangan



SQB strategiyasi kapital bahosini yuksaltirish, jarayonlarni raqamlashtirish orqali operatsion samaradorlikni oshirish va bankni xususiylashtirishga yo'naltirilgan

STRATEGIK MAQSADLAR

STRATEGIK VAZIFALAR VA PRIORITETLAR



Aksiyadorlik kapitalining qiymatini eng yuqori darajaga oshirish

- Moliyalashtirish manbalarini diversifikatsiya qilish
- Moliyalashtirish manbalari tarkibida uzoq muddatli mablag'lar ulushini oshirish
- Aktivlar sifatini oshirish
- Raqobatbardoshlikni ta'minlash
- Har bir segment ehtiyojlariga mos mahsulot va xizmatlarni taklif qilish
- Mijozlarning bank xizmatlaridan foydalanishini soddalashtirish va osonlashtirish




Operatsion samaradorlikni oshirish va jarayonlarni raqamlashtirish

- Jarayonlarni boshqarishni joriy qilish, jarayonlar sifati ustidan nazorat o'rnatish
- Mijozlarga xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish va raqamli mahsulotlar taklifini ko'paytirish
- Raqamli texnologiyalarni joriy etish va jarayonlarni avtomatlashtirish
- Erishilgan yutuqlar va samaradorlik ko'rsatkichlari uchun mukofotlashni joriy qilish




Natijaga yo'naltirilgan korporativ madaniyat

- Mehnatga haq to'lash tizimining shaffofligini ta'minlash
- Yakuniy natija va jamoaviy hamkorlikka e'tibor qaratish
- Bank tarkibiy bo'linmalarining o'zaro ichki munosabatlari sifatini oshirish
- Mijozlar bilan hamkorlik munosabatlari mustahkamlash
- Xodimlarni rag'batlantirish tizimi va iqtidorli hodimlarni tayyorlash
- Xodimlar bilan ishlashda ularning salohiyatini oshirishga e'tibor qaratish



Bankning 2024-2026-yillarda rivojlanish strategiyasi asosiy tamoyillari



01

Universal bank xususiyatlarini saqlab qolish va komission daromadlar hajmini oshirish

02

Turli xil mahsulot va xizmatlarni taklif etish, maqsadli segmentlar uchun mo'ljallangan kompleks takliflarga e'tibor qaratish

03

Biznes segmentlarini rivojlantirishning ustuvorligi

04

Joriy iqtisodiy vaziyat va bank sektori holatini hisobga olgan holda strategik maqsadlarga bosqichma-bosqich erishish

05

Daromadlarni oshirish

06

Risklarni baholash modelining moslashuvchanlik darajasini yuksaltirish

07

Bankning operatsion modeli samaradorligini oshirish

08


An'anaviy modeldan innovatsion-texnologik va mijozlarga yo'naltirilgan modelga o'tish

SQB O'zbekiston bozorida yashil moliyalashtirish yo'nalishida birinchi bank bo'lib, barqaror rivojlanish va "yashil" biznesni kengaytirishni maqsad qilgan



- Resurslardan samarali foydalanish va tabiatga ta'sirni kamaytirish
- Mehnat sharoitlari va ijtimoiy himoya
- Mijozlarni jalb qilish va ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olish
- Korporativ boshqaruvni takomillashtirish, korrupsiyaga qarshi kurashish va biznes etikasi

BANKNING YASHIL KREDITLAR PORTFELI, MLN DOLLAR



KB

- Korporativ mijozlar uchun yashil kreditlar

MKO'B

- Kichik va o'rta biznes uchun yashil kreditlar

ChB

- Yashil iste'mol krediti
- Yashil ipoteka
- Yashil kredit karta
- Yashil depozit

SQB kelgusida ham o'z faoliyatida ESG tamoyillarini joriy qilib boradi. Bu biznes jarayonlar hamda mijozlarga taqdim etiladigan mahsulotlarda o'z aksini topadi.











- Ekologik siyosatni ishlab chiqish
- "Yashil ofis" strategiyasini amalga oshirish
- ISO 14001 atrof-muhitni boshqarish tizimi sertifikatini olish



- Yashil loyihalarni baholash uchun ommaviy yondashuvlar va tartiblarni yaratish
- Bankning akkreditatsiyalangan yashil hamkorlari ichki tizimini ishlab chiqish



2024-2026-yillar uchun asosiy strategik maqsadlar



Biznes yo'nalishlarining sinergiyasi va korporativ biznes atrofida sinergetik munosabatlarni tashkil qilish orqali SQBning raqobat jarayonlarida ustunligi ta'minlanadi

Asosiy e'tibor

Strategik maqsadlar



Bank tadbirkorlarni rivojlanishning barcha bosqichlarida qo'llab-quvvatlaydi, mijozlarning Mikro darajadan Kichik, O'rta va Korporativ mijoz darajasigacha o'sishiga ko'maklashadi

- **Biznesni rivojlantirishning barcha bosqichlarida bankning ishtiroki:** o'z biznesini endi boshlayotgan mijozni mikro biznes darajasidan kichik, o'rta, korporativ biznes darajasigacha o'stirish.
- Tadbirkorlarga «bir oyna» tamoyili asosida barcha xizmatlarni ko'rsatish imkonini beruvchi vositalarni keng joriy qilish

Korporativ biznes



- Bank mahsulotlarini ishlab chiqishda individual yondashuv, mahsulotlarni mijoz ehtiyojlariga moslashtirish imkoniyati
- Mijoz ofisiga tashrif buyurish, maxsus Relationship managerlarni tayinlash

O'rta biznes



- Mikro va kichik subsegmentga mos hamda o'zgartirish imkoniyati mavjud mahsulotlar to'plami
- Masofaviy kanallar va bank tarmoqlari vositasida xizmat ko'rsatish, Relationship managerlarni tayinlash

Kichik biznes




- Standart, shartlari o'zgarmaydigan xizmatlar to'plamidan iborat paketli xizmatlarni taklif qilish
- Biznesni yuritish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha konsultatsiyalar
- Raqamli kanallardan foydalanishga o'tishni rag'batlantirish

Mikro biznes




- Standart, shartlari o'zgarmaydigan xizmatlar to'plamidan iborat paketli xizmatlarni taklif qilish
- Biznesni yuritish va moliyaviy savodxonlikni oshirish bo'yicha konsultatsiyalar
- Raqamli kanallardan foydalanishga o'tishni rag'batlantirish

SQB strategiyasini amalga oshirish uchun bank faoliyatining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan 185 ta tashabbus amaliyotga tatbiq qilinadi



Xodimlar bilan ishlash tizimini rivojlantirishning muhim yo'nalishlari



YO'NALISHLAR BO'YICHA ASOSIY O'ZGARISHLAR

- 1 O'zaro munosabatlarning ichki va tashqi tizimlari, HR brendi va rekruting (nomzodlarni izlash, aniqlash, ishga jalb qilish) tizimini rivojlantirish
- 2 Xodimlarning bankka moslashuvi tizimini ishlab chiqish
- 3 O'qitish tizimining samaradorligini oshirish
- 4 Xodimlarni rivojlantirish va karyerasini boshqarish tizimini joriy qilish
 - Kadrlar zaxirasini rivojlantirish
 - Ish haqi to'lashda **greyding** tizimini joriy etish
 - Natijaga yo'naltirilgan **samaradorlikni boshqarish tizimini** joriy etish
- 5 Kompetentsiyalar modellari va natijadorlik asosida xodimlarni baholash uslublarini kengaytirish
- 6 Natijaga yo'naltirilgan yangi korporativ madaniyatni joriy qilish

Bank ishini tashkil etish va boshqarishda Agile yondashuv

Agile yondashuv quyidagilarni nazarda tutadi:

- Alohida tashkiliy bo'linmalardan mijoz va bank uchun qiymat yaratish tamoyili asosida yaratilgan, ko'p funktsiyali, o'z ishini o'zi tashkil qiluvchi jamoalar asosida ishlashga o'tish
- Raqamlashtirish jarayonlarni qayta ko'rib chiqish, loyihalar va an'anaviy usullardan hamda Agile/Scrum/Kanban yondashuvlariga o'tish

Agile yondashuvini joriy qilgan xalqaro moliya tashkilotlari



BANK MANFAATLARI:

- 1 Time-to-Market ko'rsatkichining kamayishi
- 2 Tadbirkorlar va aholining bank bilan hamkorlik qilish darajasi va faol mijozlar sonining ortishi
- 3 Mijozlarning bankka sodiqligi indeksi (NPS) o'sishi
- 4 Tavakkalchiliklar darajasining (Cost of Risk) kamayishi
- 5 Xodimlarning bank ishidagi faolligi ortishi

Agile yondashuvining joriy qilinishi yuqori malakali mutaxassislar va zarur resurslar uyg'unlashtirilgan tashkiliy tuzilmani yaratish imkonini berib, bu tezkor va tog'ri qaror qabul qilishga sharoit yaratadi.